

29-dars

Darsning mavzusi: Ot soʻz turkumi. (125-128-mashqlar)

Darsning taʼlimiy maqsadi: ot soʻz turkumi haqidagi bilimlarini aniqlash va ular haqida maʼlumot berish; mashq va topshiriqlardagi matnlarni tinglab tushuna olish, soʻz turkumlari bilish, ularni ajrata olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: oʻquvchilarda telefonda muloqot qilishni oʻrgatish, izlanib bilim olish hissini kuchaytirish; axborot manbalaridan va darslik materiallaridan tashqari (kitob, lugʻat) manbalardan maʼlumotlarni izlab topa olish va foydalanish; oʻzining xato va kamchiliklarini toʻgʻri tushunib, oʻzini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va oʻrtoqlariga yordam berish; milliy qadriyatlarni bilish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: ot soʻz turkumlari va uning soʻroqlarini bilish koʻnikmalarini takomillashtirish; talaffuz meʼyorlariga rioya qila oladi, boʻgʻin koʻchirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllay oladi, oʻzlashtirilgan leksik birliklarni matnda qoʻllay olish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, analiz, BBB, koʻrgazmalilik.

Darsning jihozlari: mavzuga oid turli mazmunli rasmlar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, oʻquvchilarni darsga hozirlash.

II. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Yurting omon- oʻzing omon

1. Uyga berilgan vazifa oʻquvchilar daftari koʻrib chiqiladi.
2. Suhbat yordamida uy vazifasi qanday bajarilganligi aniqlanadi.
3. Necha soʻz turkumi yozdingiz?
4. Matn mazmuni mustahkamlanadi.

Javob bergan va husnixat asosida yozgan o'quvchilar daftarlari namuna sifatida ko'rsatilib rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Qoida haqida ma'lumot berib, taqdimot yordamida tushuntiriladi.

Shaxs va narsaning nomini bildirib, Kim? , Kimlar?, Nima?, Nimalar?, Qayer? So'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar ot deyiladi. Otlada birlik va ko'plikda qo'llaniladi.

125-mashq. Mashq shartiga ko'ra bajariladi. She'rdagi ot so'z turkumidagi so'zlar aniqlanadi.


Telefon, kompyuter, televizor, kitob, navbat, javon, do'st, yurak

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

126-mashq Berilgan so'zlarni mashq shartiga ko'ra guruhlariga ajratib yozing


Jonli mavjudotlar	Osmon jismlari	Vaqt	Hodisalar
Odam	oy	qish	Zilzila
Qiz	quyosh		toshqin
	yulduz		Bo'ron
			dovul

Topshiriq. "Kim chaqqon" o'yini
Bo'g'irsoq qayerga yo'l oldi?



O'quvchilar guruhlarga bo'linadilar , yuqoridagi topshiriq bajariladi
127-mashq. Mashq sharti o'qiladi. "Olma" she'ri tahlil qilish. "Olma" so'zining ma'nolari tahlil qilinadi .

Topshiriq. Olmaga rang berish



V. Darsga yakun yasash va baholash

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

128-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.